



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA QOIDALARI
VA ME‘YORLARI, GIGIENA NORMATIVLARI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YUQUMLI KASALLIKLAR
IMMUNOPROFILAKTIKASI**

**O‘zbekiston Respublikasi
0239-07 sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2007

UMUMIY QOIDALAR

Ushbu Qoida va Me'yorlar 1996 yil 29 avgust kundagi «Fuqarolarning sog'ligini saqlash to'g'risida»gi, 1992 yil 3 iyul kundagi «Davlat sanitariya nazorati to'g'risida»gi Qonunlar va Xalqaro Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (XSST)ning olib borayotgan immunizatsiya siyosati asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur Qoidalarda XSSTning Kengaytirilgan Immunizatsiya Dasturi, O'zbekiston Respublikasidagi Milliy Immunizatsiya Dasturi talablari, jamoa immuniteti tarangligi bo'yicha o'tkazilgan ko'p yillik kuzatuv natijalari, yuqumli kasalliklar bilan kasallanishlar hamda foydalaniladigan vaksinalarning epidemiologik jihatdan samaradorligini va xavfsizligi hisobga olingan.

Ushbu qoidalar va me'yorlar bo'g'ma, ko'k yo'tal, qoqshol, qizamiq, qizilcha, shol, sil, epidparotit, virusli gepatit «V» (VGV), heamophilus influenzae b turi (XIB) va rotavirus infeksiyalari hamda boshqa turdagi yuqumli kasalliklar profilaktikasi chora-tadbirlari tizimida qo'llaniladi.

Immunoprofilaktikaning maqsadi spetsifik profilaktika vositalari orqali boshqariladigan yuqumli kasalliklar bilan kasallanishni batamom tugallash, kasallanish va o'lim holatlarini kamaytirish, xususan:

shol kasalligidan xolos bo'lgan hudud maqomi darajasini ushlab turish;

bo'g'ma kasalligi ro'yxatga olinishiga yo'l qo'ymaslik;

2018 — 2020 yillarda qizamiq va qizilcha kasalliklarini kamaytirish va yo'qotish;

VGV bilan kasallanishni kamaytirish va bu infeksiyadan o'lim holatlari kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik;

XIB (heamophilus influenzae b) va rotavirus infeksiyalar bilan kasallanishni kamaytirish va o'lim holatlariga yo'l qo'ymaslik;

sil kasalligini tarqalgan (generalizatsiyalashgan) shakllarini rivojlanishini oldini olish.

Belgilangan maqsadni tatbiq qilish, quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab qiladi; sil, qizamiq, epid parotit, qizilcha, VGV, shol, bo'g'ma, ko'k yo'tal, qoqshol, XIB va rotavirus infeksiyalarga qarshi profilaktik emlash kalendariga muvofiq bolalar va o'smirlarni emlashga kamida 95% ga qamrash. Yuqumli kasalliklarga qarshi emlash — bolalar salomatligini muhofazalash borasida Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ko'p qirrali g'amxo'rliklaridan biri bo'lganligi uchun u qulay, majburiy va bepul bo'lishi lozim.

Chaqaloqlarni tug'ilgan vaqtida unga tug'ruqxonada olishi lozim bo'lgan emlashlar va ularni o'tkazish muddatlari ko'rsatilgan «Emlash pasporti» beriladi. Emlash pasportida har bir o'tkazilgan va navbatda o'tkazilishi lozim bo'lgan emlashlar ko'rsatilib qo'yiladi.

Profilaktik emlash kalendari doirasida emlash ishlari mamlakatimizda va chet mamlakatlarda ishlab chiqarilgan, dori vositalari va tibbiy texnikalar sifatini nazorat qilish Bosh Boshqarmasi tomonidan ro'yxatga olingan, sertifikatlashtirilgan hamda O'zbekiston Respublikasida foydalanishga ruxsat etilgan, joriy etilgan tartibga muvofiq foydalanish yo'riqnomalari bo'lgan vaksinalar bilan o'tkaziladi.

Emlash o'tkazilayotgan joylarda xavfsiz emlashni tashkil etishga, vaksinalarni joriy etilgan talablar asosida saqlashga, tashishga hamda profilaktik emlash kalendoriga muvofiq emlanishi lozim bo'lgan aholi guruhlar (kontingentlar)ni kamida 95% ni emlashga qamrab olinishiga davolash-profilaktika muassasasi rahbari shaxsan javob beradi.

Barcha DPM vrachlari bilishi shart:

profilaktik emlash kalendarini;

har bir emlash turiga bo'ladigan qarshi tibbiy cheklovlarni;

«sovuqlik zanjiri»ga amal qilish qoidalarini;

emlashdan keyin sodir bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarni va birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni.

Barcha DPM vrachlari, muassasaning qaysi tibbiy xizmat turiga ixtisoslashganidan qat'iy nazar, jumladan, maxsus kabinetlarda ishlovchilar, shifoxonalarda, klinikalarda, tez-tibbiy yordam ko'rsatish stansiyalarida va sog'liqni saqlash tizimining boshqa muassasalarida ishlovchi barcha xodimlar, bolalar bilan birinchi bor uchrashganda, bolani emlanligi yoki emlanmaganligini aniqlashlari lozim (emlash pasporti yoki 063/u shakldan nusxa oldirilib) so'ngra tibbiy yordam ko'rsatilib bo'lgandan keyin bolani emlash kalendoriga muvofiq emlash uchun tegishli muassasaga yuboriladi.

Profilaktik emlash kalendari

Yoshi	Emlashlar nomi
1-kunida	VGV-1
2-5 kunida	BSJ-1
2 oylikda	OPV-1, Rota-1 (oral rotavirus vaksinasi), penta-1(AKDS-1, VGV-2, XIB-1), pnevmo-1
3 oylikda	OPV-2, Rota-2 (oral rotavirus vaksinasi), penta-2 (AKDS-2, VGV-3, XIB-2), pnevmo-2
4 oylikda	OPV-3, penta -3 (AKDS-3, VGV-4, XIB-3), IPV
12 oylikda	KPK-1, pnevmo-3
16 oylikda	OPV-4, AKDS-4
6 yosh	KPK-2
1 sinf (7 yosh)	OPV-5, ADS-M-5
9 yosh	VPCh
16 yosh	ADS-M-6

Eslatmalar: KPK — uch valentli qizamiq, qizilcha, epid parotitga qarshi tirik vaksina.

AKDS+VGV+XIB (pentovaksina) — besh valentli-ko‘k yo‘tal, bo‘g‘ma, qoqshol, VGV va XIB infeksiyalariga qarshi vaksina.

Rota — rotavirus infeksiyaga qarshi ichiriladigan vaksina.

Pnevmo-pnevmonokokk infeksiyaga qarshi ichiriladigan vaksina.

Emlashga bo‘lgan ko‘rsatmalar, bu birinchi navbatda profilaktik emlash kalendariga muvofiq yoshi va noxush epidemiologik vaziyat hisoblanadi.

Tibbiy xodim tomonidan emlashni o‘tkazishga asoslanmagan tibbiy cheklovni belgilash — qoida buzishlik deb baholanadi. Boshqariladigan yuqumli kasalliklarni kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan, asossiz emlamaslik holatlari tibbiy xodimni javobgarlikka tortilishiga sabab bo‘ladi.

Yuqumli kasalliklar immunoprofilaktikasini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha sanitariya qoida va me‘yorlariga rioya etmaslik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Immunoprofilaktikada qo‘llaniladigan vaksinalarni tavsiflari

Vaksinalarni turlari		Vaksinalar nomi, dozalari va yuborish usullari	Saqlanish shartlari
Tirik vaksinalar		OPV (1 doza = og‘izga 2 tomchi), KPK (1 doza = 0,5 ml teri ostiga), BSJ (1 doza = 0,05 mg yoki 0,1 ml teri ichiga) Rota (rotavirus vaksinasi) (1 doza=og‘izga 1,5 ml)	Faqat OPVni muzlatish mumkin. KPK, BSJ, RVV vaksinalari +2 °S dan +8 °S gacha haroratda saqlanadi, muzlatish mumkin emas
Inaktivlangan	O‘ldirilgan	Ko‘kyo‘talga qarshi (AKDS tarkibida bo‘ladi)	Barcha o‘ldirilgan vaksinalar, anatoksinlar va rekombinant vaksinalarni muzlatish man etiladi , saqlash harorati +2 °S dan +8 °S gacha.
	Anatoksinlar	AKDS, ADS, ADS-M, AD-M (1 doza = 0,5 ml mushak orasiga), Qoqsholga qarshi (0,5 va 1,0 ml)	
	Rekombinant vaksinalar Pentavalent vaksinalar	Virusli gepatit V ga qarshi (1 doza = 0,5 ml mushak orasiga) Virusli gepotit V ga, ko‘kyo‘talga, bo‘g‘maga, qoqsholga va XIB-infeksiyasiga qarshi (1 doza = 0,5 ml mushak orasiga).	

Eslatmalar:

barcha turlari tirik vaksinalar, ayniqsa BSJ va KPK yorug'likka o'ta sezuvchan, shu sababi, bu vaksinalar sovuqgichni qorong'i joyida saqlanishi lozim.

barcha turdagi vaksinalarni erituvchilarini muzlab qolishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Emlash qoidalari

1. Bolalar emlashdan oldin vrach ko'rigidan o'tkazilishi lozim. Bolalarni profilaktik emlanishidan oldin birinchi navbatda emlanayotgan bolaning umumiy holatiga baho beriladi. Emlanayotgan bolaning umumiy holatiga baho berishlik bolani sog'ligi haqida ota-onasi yoki bolani olib kelgan shaxsdan so'raladi, bunda emlashga qarshi ko'rsatmalar bo'lganligi, avvalda emlash o'tkazilganda nojo'ya reaksiyalar kuzatilganligi aniqlanadi.

2. Homilador ayolda (tuqqan ayolda) VGV markeri NBsAg aniqlanganda chaqaloq tug'ilgandan so'ng 3 — 12 soat ichida VGVga qarshi emlanishi lozim. Bu maqsadda, emlashni o'z vaqtida o'tkazishlik uchun NBsAg musbat natijasi qayd etilgan ayollarni tug'ruq va chaqaloqlik tarixlari varaqalarini yuza qismining o'ng tomoniga qizil to'rt burchak (1x1 sm) belgi, farqlanadigan qilib qo'yiladi. Emlash xonalarida NBsAg musbat natijasi qayd etilgan ayollarni ro'yxatlari turishi lozim (O'zb.Res. S.S.V.ning 5.01.2012 yil kundagi 5-sonli buyrug'i).

3. OIV infeksiyali bolalar va OIV infeksiyali onalardan tug'ilgan bolalar O'zb.Res. S.S.V.ning 10.01.2010 yil kundagi 10-sonli buyrug'iga muvofiq emlanadilar.

4. Emlashlar oralig'idagi muddatlar (intervallar).

Bir xil vaksinalar dozalarini yuborib, emlash o'tkazish oralig'idagi muddat kamida bir oy. Emlashlar o'tkazishdagi intervalni davomiy bo'lishi, antitelalar ishlab chiqarishni kuchaytiradi, lekin seriyalarni tugallanishi va infeksiyadan himoyalaniшни cho'zib yuboradi.

Turli tirik vaksinalarni yuborish o'rtasidagi vaqt kamida bir oy bo'lishi lozim (yuborilgan vaksinalar o'rtasida interferensiyasi sodir bo'lishi ehtimolligi bo'lganligi sababli).

Emlash davrida navbatdagi vaksina dozasi bilan emlamasdan o'tkazib yuborilganda bola bilan birinchi muloqot qilinganda zudlik bilan o'tkazib yuborilgan emlatkilarini takrorlamay, navbatdagi emlash o'tkaziladi.

Bir vaqtni o'zida bir necha turdagi vaksinalarni alohida shprislarda tanani turli joylariga yuborish mumkin.

5. Qon va qon komponentlari quyilganda emlash qoidalari.

Qon va qon komponentlari quyilgandan keyin (eritrotsitar va leykotsitar massalar), qizamiq, qizilcha va epid parotitga qarshi emlash 6 oydan so'ng, trombotsitar massa yoki qon plazmasi quyilganda 7 oydan so'ng emlanadi.

Emlanadiganlarga immunoglobulin yuborilgan bo'lsa, qizamiq, qizilcha va epid parotitga, rotovirus infeksiyalariga qarshi emlash 3 oydan so'ng, shol va grippga qarshi emlash bir yarim oydan so'ng. AKDS, ADS, ADS-M bilan emlash immunoglobulin yuborilgandan keyin bir oydan so'ng emlanadi.

Emlashlarga bo'ladigan qarshi ko'rsatmalar

Amaliyotda emlashga bo'lgan barcha qarshi ko'rsatmalar vaqtincha hisoblanadi va bu qarshi ko'rsatmalar muntazam ravishda kuzatilib, birinchi imkoniyat paydo bo'lishi bilan bola emlanishi lozim.

Barcha turdagi vaksinalar bilan emlashga bo'lgan qarshi ko'rsatma:

avvalda emlash o'tkazilganda kuzatilgan kuchli reaksiyalar yoki asoratlar hisoblanadi, xususan:

1. O'rtacha — og'irlikdagi va og'ir holatdagi somatik va yuqumli kasalliklar bilan kasallanganlarni emlash, bemor sog'aygandan so'ng, 3 — 14 kun o'tkazib, emlanishi lozim. O'tkir nafas yo'llari kasalliklari va og'ir holatda bo'lmagan diareya bilan kasallanishlar emlash o'tkazish uchun qarshi ko'rsatma hisoblanmaydi. Bolani umumiy holati qoniqarli bo'lgan holatlarda emlash o'tkazilishi lozim. Surunkali yurak, jigar, buyrak, o'pka kasalliklari va shuningdek boshqa turdagi endokrin kasalliklari bilan kasallanganlar kasallikni qaytalanmay turgan davrida emlanishlari lozim.

2. Oldingi vaksina dozalari yuborilganda kuzatilgan kuchli reaksiyalar:

Agar, AKDS — vaksina dozasi bilan avval emlash o'tkazilganda ensefalopatiya reaksiyalari, anafilaksiya, kollaps holatlari kuzatilgan bo'lsa, tarkibida ko'k yo'tal antigeni bo'lgan vaksinalar bilan emlash o'tkazilmaydi. Emlash davomiyligini yakunlash uchun ADS-AS-anatoksin ADS-M dan foydalanish kerak.

Bolada tana haroratini yuqori (40 °S dan baland) ko'tarilishi va 3 soatdan ko'p bo'lgan davomiy chinqirib-qichqirishi kuzatilishi, keyingi emlash o'tkazishda tarkibida ko'kyo'tal komponenti bo'lgan vaksina bilan emlash o'tkazishni istisno qilishga asos hisoblanadi.

Vaksinalarning tarkibiy qismlaridan birontasi (tuxum oqsili, anti biotik)ga anofilaktik reaksiya kuzatilgan shaxslar shu tarkibiy qismli vaksina bilan emlanmaydi.

3. Rivojlanib boruvchi asab tizimi buzilishlari xastaliklari bo'lgan bolalar tarkibiy qismida ko'kyo'tal antigeni bo'lgan vaksinalar bilan emlanmaydi.

Asab tizimi buzilishi tashxisi bilan tug'ilgan bolalar 2 oylikka to'lgunga qadar rivojlanib boruvchi asab tizimi buzilishlari xastaligini istisno qilishlik uchun vrach nevropatolog ko'rigidan o'tkazish lozim.

4. Allergik kasalliklar — astma, senna — isitma, teri qoplamalari allergik kasalliklari va qoʻtir kasalliklari bilan kasallangan bolalar (sholga qarshi emlash bundan mustasno) kasallikni qaytalanmay turgan davrida, agar zarurat tugʻiladigan boʻlsa, antigistamin preparatlarini qoʻllab (yoki kunduzgi shifoxona sharoitida) emlanadi.

5. BSJ va VGV vaksinasi bilan tugʻruqxonada vaqtinchalik tibbiy cheklovlar sababli emlanmay qolgan bolalar, kasal chaqaloqlar boʻlimi (OPN)da davolanib, uyga chiqarilishidan oldin yoki chaqaloqlik davri (tugʻilgandan keyin 29 kun ichi)da emlanishlari lozim.

6. Sil kasalligini bakteriya ajratib chiqaruvchi faol shakllari bilan kasallangan onalardan tugʻilgan bolalar 2 oy muddatga onalaridan alohida ajratilib, silga qarshi (BSJ bilan) emlanishi lozim.

Vaksinani turlari boʻyicha qarshi koʻrsatmalar

T/r	Vaksina turlari	Qarshi koʻrsatmalar
1	Barcha turdagi vaksinalar	Avvalda vakcina dozasi yuborilganda kuchli allergik reaksiyalar yoki asoratlar kuzatilgan boʻlsa; Yuqumli va somatik kasalliklarning oʻtkir davrida (emlash, sogʻaygandan keyin 3 — 14 kundan keyin oʻtkaziladi);
2	Barcha turdagi tirik vaksinalar	Immun yetishmovchiligi holati, dori vositalari immunosupressiya holatlarida yoki ximioterapiya va gormonal terapiyadan keyingi immunosupressiya holatlari, OIV infeksiyasi; Yomon sifatli oʻsmalar; Homiladorlik;
3	BSJ	Chala tugʻilganlik (vazni 1800 gr dan kam); Tugʻruq davrida bosh-miyani ogʻir jarohatlanishi; Gemolikvorodinamikani 3darajali buzilishi; OIV infeksiyali va OIV infeksiyasining klinikasi namoyon boʻlgan onalardan tugʻilgan bolalar;
4	VGV	Vazni 1800 gr dan kam tugʻilgan bolalar; Achitki zamburugiga allergiyasi boʻlganlar;
5	OPV	Immunodefitsit holatlari; Yomon sifatli oʻsmalar;
6	AKDS	Rivojlanib boruvchi asab tizimi kasalliklari; Afebril tutqanoq boʻlganlar;
7	ADS, ADS-M, AD-M	Umuman tibbiy cheklovlar yoʻq;

8	KPK	Immunodefitsit holatlari; Tovuq tuxumi oqsiliga allergiyasi bo‘lganlar; Immunoglobulin yuborilgandan so‘ng; Homiladorlik;
9	XIB (Penta)	VGV va AKDS vaksinalariga taalluqli bo‘lgan barcha qarshi ko‘rsatmalar;
10	Rotovirus vaksinasi	Dori vositalari immunosupressiyasi; Yomon sifatli o‘smalar; Vaksinani tarkibiy qismlariga bo‘lgan o‘ta sezuvchanlik; Avvalda vaksina yuborilganda kuzatilgan reaksiyalar; Oshqozon ichak tizimining rivojlanishidagi yetishmovchiliklar (masalan, mekkelev divertikuliti); Birlamchi immunodefitsit holati.

Emlash o‘tkazish uchun qarshi ko‘rsatma bo‘la olmaydi

Holatlar:	Anamnezda ko‘rsatilganda:
Perinatal ensefalopotiya barqaror nevrologik holatlar; Bolalardagi bosh-miya falajligi (DSP), Dauna kasalligi va boshqalar; Allergiya, astma, qo‘tir; Yurakning, o‘pkaning, buyrak va jigarning surunkali kasalliklari; Anemiyalar; Disbakteriozlar; Timus hajmini kattalashishi; Tug‘ma poroglar; Steroidli va garmonli preparatlar bilan davolash; Yuqumli kasalliklarni yashirin davrlari.	Chaqaloqlik davridagi sariqlik; Chala tug‘ilish; Chaqaloqlarni gemolitik kasalliklari; Sepsis; Oila a‘zolarida vaksinadan keyin asoratlar kuzatilgan bo‘lsa; Oila a‘zolarida allergiya va tutqanoq kuzatilgan bo‘lsa; Oila a‘zolarida oilada epilepsiya bilan kasallanganlar bo‘lsa; Oila a‘zolarida tasodifan o‘lim holati qayd etilgan bo‘lsa; Ko‘kyo‘tal, qizamiq, qizilcha, epid parotit kasalligi bilan kasallanganligi hujjat asosida tasdiqlanmagan bo‘lsa.

Eslatma: Surunkali kasalliklarni qaytalanishi, emlash o‘tkazish uchun vaqtincha tibbiy cheklov hisoblanadi. Bunday holatlarda rejali emlash bemor sog‘ayganda yoki kasallikning qaytalanmay turgan davrida o‘tkaziladi.

Emlash o'tkazishga qarshi ko'rsatma vrach (UASh, pediatr) tomonidan belgilanadi. Emlashga bo'lgan tibbiy cheklovlar barchasi hisobga olinib tibbiy cheklovlarni qayd etib borish daftariga yozib borilishi lozim. Tibbiy cheklovlar 1 oy va undan ortiq muddatga belgilanganda immunologik komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi. Tibbiy cheklov belgilangan bolalar uchun sog'lomlashtirish rejasi tuziladi va alohida emlash kalendari ishlab chiqilib, bolani rivojlanish tarixi, 112-u shaklga, emlash pasportiga hamda tibbiy cheklovlarni qayd etib borish daftariga yozib qo'yiladi. Alohida guruhga mansub bo'lgan bolalarni emlash o'tkazish yo'nalishlari «Vaksinoprofilaktika osobym grupp detey» (Tashkent 2011) nomli uslubiy qo'llanmada ko'rsatilgan.

Profilaktik emlashni rejalashtirish

Profilaktik emlash rejasini tuzishda, aholini soni va aholi guruhlari bo'yicha o'tkazilgan emlash tahlili bo'yicha, o'tgan yilda emlanmay qolgan shaxslar soni asos qilib olinadi. Aholi sonini aniqlash uchun bir yilda ikki marta (bahorda va kuzda) aholini ro'yxatga olish o'tkaziladi. Bu maqsadda uy xo'jaliklari bo'yicha oilani ro'yxatdan o'tkazish daftari to'ldirilib, so'ngra aholini yoshlari bo'yicha guruhlarga ajratilib, aholi soni aniqlanadi va yakuniy jadval to'ldiriladi. Aholi ro'yxati tuzib bo'lingandan keyin, DPMning kartoteka xonasidagi mavjud 063, 064, 112-shakllar ro'yxatga olish jurnali va aholini yoshlari guruhi bo'yicha tuzilgan jadvaldagi soni bilan taqqoslanadi.

Xizmat hududidagi barcha aholini 063, 064-shakllari aholining guruhlari bo'yicha; uyushmagan bolalar — aholi yashash punktlari kesimida, uyushgan bolalar va o'smirlar guruhlari — maktabgacha tarbiya muassasalari, maktablar, litseylar, kollejlari, oliy o'quv yurtlari kesimida, katta yoshdagi uyushgan aholi esa muassasalar, korxonalar va aholi yashash punktlari kesimida markazlashgan holda kartotekalashtiriladi. Tuzilgan ro'yxat va o'tkazilgan taqqoslash asosida aholini yoshma-yosh kesimi bo'yicha tarkibiy qismi jadvali tuziladi.

Aholini ro'yxatga olish ishlari nazorat tartibida tekshirilib dalolatnoma tuziladi va DPM bosh vrachi tomonidan tasdiqlanadi. Har oyda yuqumli kasalliklar (qizamiq, qizilcha, bo'g'ma, ko'kyo'tal, qoqshol, shol, virusli gepatit V, epid parotit, XIB va rotovirus infeksiyalar)ga qarshi emlanganlik tahlil qilib boriladi.

Emlanishi lozim bo'lgan aholini soni aniqlanib bo'lgandan so'ng profilaktik emlash rejasini tuzishga kirishiladi.

Profilaktik emlash rejasi 063, 064 va 112-shakllar asosida UASh (pediatrlar) DPM hamshiralari va o'quv tarbiya muassasalarining vrachlari, hamshiralari tomonidan tuziladi.

Maktablar, kollejlari, litseylari va MTMLari profilaktik emlash rejalari tuman (shahar) bosh pediatri, bosh terapevtlari va immunologlari tomonidan umumlashtiriladi.

Profilaktik emlash rejalari hududiy Davlat sanitariya epidemiologiya nazorat markazlari bilan kelishilgandan so'ng viloyatlar, Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalariga va Qoraqalpog'iston Sog'liqni saqlash vazirligi bosh mutaxassislariga taqdim qilinadi.

Profilaktik emlash rejalari, viloyat DSENMLari bosh vrachlari bilan kelishilib, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklari Sog'liqni Saqlash Bosh Boshqarmalari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi tomonidan tasdiqlangandan so'ng O'z.Res.SSVgi Onalik va bolalikni muhofazalash Bosh boshqarmasiga (O va MBB) O'z.Res.SSVgi Sanitariya epidemiologiya nazorati Bosh boshqarmasi (SENBB)ga taqdim etiladi. Profilaktik emlash rejalari Onalik va bolalikni muhofazalash Bosh Boshqarmasi va Sanitariya epidemiologiya nazorati Bosh Boshqarmasi tomonidan ko'rib chiqilgandan so'ng respublika SSV, DSENMGa umumlashtirish uchun va emlash materiallariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash uchun yuboriladi.

Immunolog shifokorining vazifalari

Immunolog shifokorining vazifalariga quyidagilar kiradi:

profilaktik emlash kalendari asosida yillik emlash rejasini tuzish;

yillik, chorak va oylik vaksinalarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;

xizmat o'ramidagi bolalarni o'z vaqtida va to'liq hisobga olinishi ustidan doimiy nazorat olib borish;

emlatkilarni to'la, sifatli va o'z vaqtida o'tkazilishi ustidan doimiy nazorat olib borish;

emlash rejalari haqqoniy tuzilishi va profilaktik emlash rejalari bajarilishi ustidan nazorat olib borish;

emlashga tibbiy cheklov (qarshiligi) bo'lgan bolalarni nazoratga olish va ulardagi tibbiy cheklovlarni haqqoniyligini tekshirib borish;

asoslanmagan tibbiy cheklov berilganligi uchun shaxsan javobgarlik;

emlashga uzoq muddatli tibbiy cheklovlar berilgan bolalarni hujjatlari (112, 063-shakl) ni tuman, shahar tibbiy birlashmalari qoshidagi immunologik komissiyalariga, ularni shifoxonaga yuborib tekshirishlar o'tkazib sog'lomlashtirib, emlash masalasini hal etish uchun yuborish;

emlash kabineti hamshirasini va immunobiologik preparatlarni hisobga olish, saqlash va sarflash bo'yicha javobgar xodimlar ishini nazorat qilish;

tibbiy xodimlarga xavfsiz emlash masalalari bo'yicha birlamchi o'quv mashg'ulotlari o'tkazish;

har oyda o'tkazilgan profilaktik emlash, vaksinalarni sarflanishiga oid 6-shakl bo'yicha hisobot tuzish;

aholi o'rtasida immunoprofilaktika ahamiyati to'g'risida sanitariya maorif ishlarini tashkil etish va o'tkazish;

Shifokor (UASH uchastka pediatri) vazifalari

Yillik va oylik profilaktik emlash rejasini tuzadi;

emlash o'tkazish kunini, bolaning tibbiy ko'rigiga kelishi muddatini belgilaydi hamda tibbiy cheklovlar mavjudligini aniqlaydi;

emlatkiga tibbiy cheklovlar bo'lgan bolalarni sog'lomlashtiradi va keyinchalik ularni to'liq emlashlari uchun javobgar hisoblanadi.

emlashdan keyingi asoratlari kelib chiqishi mumkin bo'lgan «xavfli guruh»dagi bolalarni ro'yxatini tuzadi;

emlanadigan bolalarni tibbiy ko'rikdan (tana haroratini o'lchab) o'tkazadi, sog'lig'iga qarab emlashga ruxsat beradi, xulosasini 112-shakli hujjatiga yozishi lozim. Zarurat paydo bo'lganda DPM rahbari bilan kelishgan xolda maslahat olish uchun poliklinikaga yuboradi;

emlangan bolalarni 1 oy davomida tibbiy kuzatuvni olib boradi;

emlashdan so'ngi noan'anaviy reaksiyalar kuzatilgan bolalarni shifoxonaga davolanishga yuboradi;

har oyda o'tkazilgan profilaktik emlashlar va sarflangan vaksinalar to'g'risida 6-shakl bo'yicha hisobot tuzadi;

har oyning oxirida o'ziga biriktirilgan uchastkalar bo'yicha profilaktik emlash rejasini bajarilishini tahlil qiladi;

o'z xizmat hududida sanitariya-targ'ibot ishlarini o'tkazadi.

Patronaj hamshirasining vazifalari

emlashga zarur bo'lgan aholini hisobini olib boradi (bir yilda 2 marta bahorda va kuzda aholini ro'yxatga oladi, kelgan-ketganlarni va chaqaloqlarni hisobini olib boradi);

har yarim yilda 1-marta 063, 064-shakllarini ko'rib, tekshirib chiqadi;

har oyda chaqaloqlarni o'z vaqtida rejalashtirish va profilaktik emlash kalendari bo'yicha emlashini ta'minlash maqsadida ularni hisobga oladi va patronajini yuritadi;

kartateka hamshirasi bilan joriy yilda va har oyda emlanishi lozim bo'lgan aholi ro'yxatini tuzadi;

oylik emlash rejasiga muvofiq, bolalarni ota-onalari bilan emlatki olishi uchun chaqiradi;

emlashdan so'ng reaksiyalar va asoratlarni aniqlash maqsadida uyiga patronajga boradi;

dispanser hisobida turadigan va tibbiy cheklovi bo'lgan bolalarni vrach ko'rigiga chaqiradi;

har oyda boshqa tumanlarda maktablarga, bolalar muassasalariga qatnaydigan bolalarni emlanish holatini aniqlaydi va rasmiy hujjatlarni yozib boradi;

har oyda qilingan emlashlar to'g'risida hisobot tuzadi va taqdim etadi.

Oilaviy poliklinika va tibbiy birlashmalarning bosh hamshirasini immunoprafilaktika masalalari bo'yicha vazifalari

Bosh hamshiralarning (bakpreparatlar va immunobiologik preparatlar bo'yicha mas'ul) vazifalari:

immunobiologik preparatlar, shprislar, xavfsiz utilizatsiya qilish qutilari va sovutgich jihozlariga bo'lgan joriy ehtiyojni aniqlaydi;

hududiy bo'linmalardan preparatlarni oladi;

vaksinalar va emlash materiallarini emlash xonalariga beradi;

DPMda vaksinalarni va emlash materiallarini sarflanishi va hisobotlarni to'g'ri yuritilishi bo'yicha javob beradi;

emlash xonalarida foydalanilgan in'eksiya-materiallarini belgilangan talablar asosida to'planishi va utilizatsiya qilishni ustidan nazorat olib boradi;

Emlash xonasi hamshirasi (vaksinotor) vazifalari

sanitariya qoida talablariga muvofiq emlash xonasi sanitariya holatiga javob beradi;

vrach ko'rsatmasi asosida bolalarni emlaydi va emlash kalendariga hamda xavfsiz emlash qoidalariga rioya etishga javob beradi.

o'tkazilgan emlatkilar va sarflangan vaksinalarni ro'yxatga olish uchun hisob — kitoblarni olib boradi;

o'tkazilgan emlatkilarni 112/u shaklga, 063 shaklga va emlatkilarni ro'yxatga olish ishchi jurnaliga (emlatki turi, o'tkazilgan kun, doza, seriya) yozib boradi;

oylik emlashni monitoring o'tkazish grafigini yuritib boradi;

emlashdan so'ng reaksiyalarni hisobini olish uchun emlangan bolalarni uylarga faol qatnovni uyushtiradi;

vrach ko'rsatmasi va nazorati ostida emlash xonasiga vaksinalar, medikamentlar, bog'lov vositalari va jihozlarni oladi, vaksinalarni saqlash talablarini bajarilishini ta'minlaydi.

Emlash xonasi kartateka hamshirasini vazifalari (vazifalar patranaj hamshira zimmasiga yuklanadi)

barcha 14 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun 063/u shakllari asosida emlash kartatekasini tuzadi;

profilaktik emlash kartalarini o'z vaqtida to'ldirib boradi. (o'tkazilgan emlatkilar va emlanmaslik sabablari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan);

patranaj hamshiralar bilan hamkorlikda bir yilda ikki marta, aholining ro'yxatini tuzgandan so'ng 063/u-shakllar asosida bolalarni hisobini to'liq yuritilayotganligini tekshiradi;

profilaktik emlash rejasini keyingi hafta, oy, yil uchun tuzadi;

patranaj hamshiralardan, maktabgacha tarbiya muassasalari va maktab hamshiralaridan o'tkazilgan emlash hisobotlarini qabul qiladi;

har oy yakunida poliklinika bo'yicha oylik emlash hisobotini va rejani bajarilishining statistik tahlilini o'tkazadi.

Emlashni tashkil etish

Profilaktik emlashlar — DPMsidagi belgilangan talablarga javob beradigan xonada tashkil etiladi va o'tkaziladi;

Tug'ruq bo'limlarini emlash xonalarida chaqaloqlardan skrining tekshiruv uchun qon namunalarini olishga ruxsat etilmaydi;

Emlash o'tkazish, bevosita maktabgacha tarbiya muassasalarida, maktablarda va boshqa muassasalarda o'tkazishga zarurat paydo bo'lganda, emlash ishlarini faqat belgilangan talablar asosida jihozlangan tibbiy xonalarda o'tkazish tavsiya etiladi. Ayrim, uzoq va yetib borish qiyin bo'lgan hududlarda emlashni tashkil etish va o'tkazish uchun tarkibida vrach va vaksinatorlardan iborat ko'chma brigadalar tuzilib emlashlar o'tkaziladi.

Emlash xonalariga qo'yilgan talablar

Emlash xonalari ishi ustidan rahbarlik — bosh vrachning buyrug'i bilan uning o'rinbosari yoki u bo'lmaganda bo'lim mudiri zimmasiga yuklatiladi. Qishloq vrachlik punktlarida mudir zimmasiga yuklatiladi. Emlash xonasi 2 ta xonadan: maydoni 20 m² bo'lgan kartateka xonasi va maydoni 12 m² bo'lgan emlash o'tkazish xonalaridan iborat bo'lishi lozim. Emlash o'tkazish xonasini devori butun balandligi bo'ylab to'liq kafel bilan yoki boshqa nam o'tkazmaydigan material bilan qoplangan bo'lishi lozim. Poli suv o'tkazmaydigan material bilan qoplanishi va patalogi moyli bo'yoq bilan bo'yalishi lozim. Emlash xonasi issiq suv va sovuq suvga ulangan rakvina bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Emlash xonasida har kuni 2 marta «emlash xonasi uchun»

deb maxsus belgilangan tozalov anjomlari bilan yuvuvchi vositalar qo'llagan xolda, ish kuni yakunida esa dezinfeksiyalovchi vositalar qo'llagan xolda tozalov ishlari o'tkazilishi lozim. Emlash xonasida mukammal tozalov haftada bir marta o'tkaziladi.

DPMlari emlash xonasida bo'lishi lozim bo'lgan jihozlar ro'yxati:
vaksinalarni saqlash uchun polkalari belgilangan sovutgich;
shokka qarshi davolashda qo'llaniladigan vositalar va jihozlarni saqlash shkafi;
bir martalik shpris va ignalar qo'shimcha zaxirasi bilan, termometrlar, tanometr, elektrootsos, og'iz kengaytirgich, til tutgich va korsanglar;
dezinfeksiyalovchi eritma va foydalanilgan asboblarni tashlash uchun idishlar;
emlash stoli;
tibbiy kushetka va yo'rgaklash stoli;
hujjatlarni saqlash va yozish uchun stol;
qo'lni yuvush uchun rakvina;
bakteriotsid lampa;
termosumka;
ishlatilgan shprislar va emlash materiallarini to'plash uchun xavfsiz qutilar.

Emlash o'tkaziladigan DPMda elektr ta'minotida uzilish bo'lmasligi uchun elektrogenerator bo'lishi lozim.

Emlash xonasida shokka qarshi dori qutisida quyidagilar bo'lishi lozim:

2 ta jgut, bir martalik steril shpris 10 dona ;
adrenalin gidroxloridni 0,1% li 1,0 ml eritmasi 10 ta ampula;
prednizalon va gidrokortizon eritmalari 5 ampuladan;
5% li glyukoza eritmasidan 200 ml, infuzion sistema bilan;
5 ampuladan antigistamin preparatlari;
kalsiy va eufilinni 2,4 % li eritmalari ampulalarda;
yurak preparatlari (kordiamin, korglyukin, strofantin).

Emlashdan so'nggi kuchli asoratlarda (anafilaktik shok va boshqalarda) belgilangan bosqichlar bo'yicha shoshilinch yordam ko'rsatish uchun yo'riqnoma bo'lishi lozim.

Emlash xonasining hujjatlari:

profilaktik emlashni o'tkazishda foydalaniladigan hamma preparatlarni qo'llash yo'riqnomalari;

o'quv — uslubiy qo'llanmalar;

vaksina va boshqa preparatlarni, shpris, igna va kartalarni ro'yxatga olish va sarflanishini qayd qilish jurnali,

sovutgich jihozlarini ishlash tartibi, haroratni ro'yxatga olish varaqasi;

oylik o'tkazilgan emlatkilarni monitoring grafigi;

har oyda olingan va sarflangan vaksinalar, o'tkazilgan emlashlar bo'yicha 6-shakl, yillik hisobot bo'yicha 5-shakl hamda muassasaga taalluqli bo'lgan statistik hisobotlarni tuzish bo'yicha yo'riqnomalar;

O'zbekiston Respublikasi SSVning 2006 yil 26 iyundagi 287-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «profilaktik emlash kartasi» 063-shakl;

aholini yoshma-yosh ro'yxat;

tibbiy cheklovlarni ro'yxatga olish jurnali va immunologik komissiyaning qarorlari;

emlashdan so'ngi reaksiyalar asoratlarni ro'yxatga olish jurnali;

DPM rahbari tomonidan tasdiqlangan favqulodda holatlarda shoshilinch choratadbirlar o'tkazish rejasi (elektr energiya uchirilganda va boshqalar)

Emlashlarni o'tkazish

Davlat Sanitariya Epidemiologiya Nazorat Markazi (DSENM) va DPM lari barcha bo'g'inlarda bakterial va virusli preparatlarni tashilishni va saqlashni amaldagi qonun hujjatlaridagi yo'riqnomalar va O'z.Res.SSVning 11 aprel 2006 yil 148-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Barcha bo'g'inlarda saqlanadigan vaksinalarni effektiv boshqarish bo'yicha Standart Ishchi Muolajalari» uslubiy qo'llanmasiga muvofiq to'g'ri amalga oshirilishi lozim. DSENMlari profilaktik maqsadda va epid ko'rsatmalar bo'yicha o'tkaziladigan barcha tadbirlarni nazorat qiladi va vaksinalar bilan ta'minlaydi.

Diagnostic maqsadda foydalaniladigan preparatlar, shuningdek, tuberkulin, qoqshol, bo'g'ma, gangrena, botulizmga va ilon hamda qoraqurtga qarshi zardoblar DPMLarni mablag'i hisobidan sotib olinadi.

Emlashlarni joylardagi belgilangan poliklinikalarda, maxsus tayyorgarlikdan o'tgan va har yili emlash xonasida ishlash uchun ruxsat beruvchi sertifikat olgan tibbiy xodim-vaksinadorlar amalga oshirishlari lozim. Har yili silga qarshi emlash o'tkazadigan tibbiy xodimlar tayyorgarligini silga qarshi kurashish dispanseri mutaxassislari o'tkazadilar.

Sertifikati bo'lmagan va emlash xonasida ishlashga bosh vrach buyrug'i bilan tayinlanmagan xodimni emlash xonasida ishlashga ruxsat etilmaydi.

Emlash ishlarini tashkillashtirish va o'tkazishda qatnashadigan har bir tibbiy xodim bilishi va bajarishi lozim:

yuqumli kasalliklar immunoprafilaktikasi bo'yicha sanitariya qoida va me'yorlarini bilishi;

immunoprofilaktika bo'yicha maxsus sinovdan o'tishi;

vaksinalar bilan ishlash qoidalarini (tashilishi, saqlanishi, qo'llanishi, sifatini nazorat qilishni,) emlashlarni xavfsiz amalga oshirish qoidalarini, xavfsiz in'eksiyalar va «ochiq flakonlar» siyosatiga rioya qilishni;

qizamiq, qizilcha, epidparatit, BSJ vaksinasining eritgandan so'ng 6 soat davomida ishlatilishini ushbu vaqt davomida ishlatilmay qolgan vaksinani yo'q qilinishini esda tutish;

BSJ vaksinasining 50,0% gacha, qizamiq, qizilcha, epidparatitga qarshi vaksinalarni, virusli gepatit «V», AKDS, ADS, ADSM, AD-M, rotovirus infeksiyalarga qarshi vaksinalarni va poliovaksinalarni 15 %gacha ortiqcha sarflanishiga ruxsat etilishini;

emlashdan so'ngi reaksiyalar va asoratlardan ustidan nazorat qilib borishni;

har oyda emlash kartalari (063/u va 112/u-shakllar)ni emlash bilan qamrab olish darajasini aniqlash uchun ko'rib chiqib, 6-shakl bo'yicha hisobot tuzishni.

zarur bo'lib qolganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish usullari bo'yicha bilimga ega bo'lishi;

aholi o'rtasida emlashning ahamiyati to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borishni;

3. Emlash o'tkazishdan oldin emlash hamshirasi (vaksinador) bajarishi lozim:

emlashga kelgan shaxsni sog'lig'i to'g'risida vrach xulosasini mavjudligini, shuningdek emlash uchun qarshi tibbiy ko'rsatma yo'qligini tekshirishi;

qo'lini yuvishi;

vrach ko'rsatmasi bilan ampuladagi (flakondan) preparatning nomini solishtirish;

preparatlarni qo'llanishi bo'yicha yo'riqnomalariga muvofiq ishlatishga tayyorlash (adsorbsiyalangan vaksinalarni yaxshilab siltab, aralashtirish, antiseptika qoidalariga rioya qilgan xolda ampulani eritish va ochish, lofillangan vaksinalarni erituvchisi bilan eritish).

4. Emlash o'tkazish davomida bajarilishi lozim:

Preparat yuboriladigan joyni to'g'ri zararsizlantirish;

faqat bir martalik shpris va ignalardan foydalanish;

vaksina dozasini to'g'ri olish, emlash joyi va emlash usulini to'g'ri tanlash;

xavfsiz emlash amaliyotlari (uslubiy qo'llanmaga muvofiq) talablarini to'la bajarish

5. Emlash o'tkazib bo'lgandan so'ng bajarilishi lozim;

Emlash o'tkazilishi haqida emlangan shaxsning tibbiy hujjatlari (112\u, 026\u, 025\u, 063\u-shakllari) ga hamda 064-shakliga, emlashlarni ro'yxatga olish jurnaliga yuborilgan preparat nomini, yuborilgan kuni, dozasi va seriyasini ko'rsatib yozib quyilishi;

emlangan shaxsni (yoki uning ota-onasini) emlashdan so'ng yuz berishi mumkin bo'lgan reaksiyalar va vrach kelgunga qadar yordam ko'rsatish to'g'risida xabardor qilinadi va kuchli yoki noana'naviy reaksiyalar sodir bo'lganda tibbiy yordamga zudlik bilan murojaat etishi tushuntiriladi;

emlangan shaxs, emlangandan so'ng birinchi 3 kunida, har kuni emlashdan so'nggi reaksiyalarni va asoratlarni aniqlash maqsadida hamda bir oy davomida emlashni o'tishi yuzasidan kuzatuv olib boriladi.

Emlashdan keyingi reaksiyalar va asoratlar

Emlashdan keyingi reaksiyalar — u yoki bu turdagi vaksinani yuborgandan keyin yuz beradigan klinik va laboratorik o'zgarishlarga aytiladi.

Ba'zi turdagi vaksinalar yuborilganda (BSJ, Sariq isitmaga qarshi vaksinalar) yuz beradigan mahalliy o'zgarishlar immunitet hosil bo'lishi uchun zarur shartlar hisoblanadi.

Yuz beradigan reaksiyalar kechish darajasi yengil holatdan o'ta og'ir holatgacha bo'lishi mumkin.

Yengil darajasidagi mahalliy reaksiyalar (vaqtincha haroratni ko'tarilishi, in'eksiya qilingan joyda qichishishni bo'lishi) aksariyat xollarda AKDS vaksinasi bilan emlanganlarni 20-50%da uchraydi. Tana haroratini biroz ko'tarilishi, qisqa muddatli injiqlik va ishtahani yomonlashgani me'yor darajasidagi reaksiya deb baholanib, davolash o'tkazish talab etilmaydi.

Emlashdan keyingi asoratlar (PVO) — organizmda kechadigan klinik buzilishlarning kechish tezligi, xarakteri va og'ir bo'lishi bilan emlashdan keyingi reaksiyalardan farq qiladi.

Emlashdan keyingi asoratlarda bemorning holati o'ta og'ir holatda bo'lishi, ayniqsa uzoq kechadigan davomiy asoratlar yuz berishi kam uchraydi. Emlashdan so'ngi reaksiyalar va asoratlar to'g'risidagi ma'lumotlar (klassifikatsiyasi, klinikasi, diagnostikasi) O'zbekiston Respublikasi SSVning 2015 yildagi 36-sonli buyrug'ini 5-ilovasida keltirilgan.

Tibbiy patranaj hamshirasi tomonidan emlash o'tkazilgandan so'ng, emlashdan keyingi reaksiyalar va asoratlarni aniqlash uchun majburiy tartibda 3-kun davomida uyiga borib ko'rib turishi va har bir emlashdan so'nggi asorat yoki gumon qilingan holatlarni ro'yxatga olishi va holat yuzasidan tekshiruv o'tkazish uchun hududiy DSENM ga shoshilinch xabarnoma berishi lozim.

Emlashdan so'ngi asoratlar qayd qilinib, tekshiruv olib borilayotganda, O'zbekiston Respublikasi SSVning 28 dekabr 1999 yil 759-sonli buyrug'ini 2-ilovasida ko'rsatilgan, emlashdan so'nggi asoratlarda epidemiologik va klinik — laboratorik tekshiruvlar o'tkazish algoritmini qo'llab o'tkaziladi.

Ro'yxatga olinishi va DSENM ga xabarnoma berilishi lozim bo'lgan asoratlarga kiradi:

BSJ vaksinasi bilan emlash o'tkazilishda paydo bo'ladigan limfadenitlar;
vaksinalar bilan in'eksiya qilingan joyda abseslar paydo bo'lganda;

tibbiy xodimning yoki aholining fikriga ko'ra vakcina o'tkazilgandan so'ng 1 oy davomida yuz bergan emlash bilan bog'liq deb hisoblangan hamma o'lim holatlari (BSJdan keyin 1 yilgacha);

aholining yoki tibbiy xodimning fikriga ko'ra 1 oy davomida emlashdan keyin yuz bergan barcha og'ir va noan'anaviy emlashdan so'nggi reaksiyalar sababli shifoxonaga yotkazilish holatlari;

Bolalarda emlash bilan bog'liq bo'lgan emlashdan so'nggi reaksiyalar va asoratlarni aniqlash va ro'yxatga olishga barcha DPM (davlat va xususiy sektor) tibbiy xodimlari javobgar hisoblanadi.

Zudlik bilan telefon orqali emlash o'tkazilgan joyni tibbiy muassasa rahbariyatiga va hududiy DSENMga xabar berishi, u joydan ma'lumotlar yuqori tashkilotlarga — viloyat Davlat sanitkriya epidemiologiya nazorati markaziga, Respublika sanitariya epidemiologiya nazorati markaziga va O'zbekiston Respublikasi SSVning sanitariya epidemiologiya nazorati Bosh boshqarmasiga yuborilishi lozim;

shoshilinch xabarnoma berilishi bilan bir vaqtning o'zida 063 va 112-shakllarga yoziladi. Barcha emlashdan keyingi reaksiyalar, holatlar to'g'risidagi ma'lumotlar O'z.Res SSVning 2015 yil 27 yanvardagi 36-sonli buyrug'iga muvofiq va «Profilaktik emlash hisoboti» 6-shaklini «D» bo'limidagi «Emlashdan keyingi reaksiyalar va asoratlar» to'g'risidagi 3-jadval bo'yicha oylik hisobotlarga kiritilishi lozim.

Emlashlarni ro'yxatga olish

Kartateka hujjatlarini to'g'ri yuritilishi va bolalarni to'liq emlov bilan qamrab olinishiga DPM bosh vrachi o'rinbosari va vrach immunolog javobgar hisoblanadi, bu maqsadda muntazam ravishda nazorat qilib borishlari lozim:

bolalarni to'liq ro'yxatga olinishi, jumladan uyda tugilganlarini ham;
emlashlarni o'z vaqtida o'tkazilishini;

emlashga berilgan tibbiy cheklavlarni asoslanganligi va tibbiy cheklov berilgan bolalarning hisobotini yuritilishini;

vrachlar tomonidan emlashga buyurilganligi to'g'risida yoki tibbiy cheklov berilganligi to'g'risidagi xulosalarni yozilib borilishini;

belgilangan tartiblarga asosan, hisobot shakllari bo'yicha o'tkazilgan emlashlarni yozib borilishini;

Profilaktik emlash hisobotlarini tuzish

Davolash profilaktik muassasasi bosh vrachi mas'ul hisoblanadi:

aholini bir yilda 2 marta ro'yxatdan o'tkazilishi, reja tuzilishi, emlashlarni o'tkazilishiga, profilaktik emlashni hisobotlarini haqqoniy yuritilishiga;

hududiy DSENMga o'z vaqtida profilaktik emlash to'g'risida hisobotni, tibbiy cheklovlar va emlashdan keyingi sodir bo'lgan nojo'ya holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni berilishiga;

davolash profilaktika muassasalari o'z hisobotlariga bolalar o'quv tarbiya muassasalarida o'tkazilgan emlashlarni, bolalarni yashaydigan joylaridan qat'iy nazar barchasini kiritishlari lozim;

Vaksinalarni saqlash, ulardan foydalanish va hisobotini yuritish tartiblari

Profilaktik emlashni o'tkazish uchun faqat mamlakatimizda va chet ellarda ishlab chiqarilgan dori vositalari, tibbiy texnikalarni sifatini nazorat qilish Bosh Boshqarmasi tomonidan ro'yxatga olingan va sertifikatlangan, belgilangan tartiblarga asosan O'zbekiston respublikasi hududida foydalanishga ruxsat etilgan vaksinalar bilan o'tkaziladi;

Davolash profilaktika muassasasi bosh vrachlari, vaksinalarni va boshqa immunobiologik preparatlarni hamda shprislarni, in'eksiya materiallarini xavfsiz yo'qotish uchun qutilarni o'z vaqtida olinishi, to'g'ri saqlanishi va taqsimlanishi bo'yicha javobgar hisoblanadi;

Vaksinalarni hisobga olish, saqlash va sarflash DPM bosh vrachi buyrug'i bilan muassasaning bosh hamshirasi zimmasiga yuklatiladi, undan tashqari alohida, sovutgich jihozlaridan to'g'ri foydalanish bo'yicha va vaksinalarni to'g'ri saqlash va tashish bo'yicha maxsus o'qitilgan tibbiy xodim tayinlashini lozim.

Vaksinalarni tarqatish joylardan (DSENM), foydalaniladigan joylarga — hududiy DSENMlarga, poliklinikalarga, tug'ruq uylariga, MTMlarga, maktablarga va boshqa joylarga belgilangan tartiblar asosida «sovuqlik zanjiriga» amal qilgan holda, olib kelishlari uchun maxsus termoelementlari bo'lgan sovutgich sumkalar bo'lishi lozim.

Olingan bakterial preparatlar, shprislar va in'eksion materiallar xavfsiz utilizatsiya qilish karobkalarining hisoboti Xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti, YuNISSEF tomonidan tavsiya etilgan maxsus, «Vaksinalar, shpris ignalarni nazorat qilish jurnali» bo'yicha olib boriladi.

Emlash xonalarida tibbiy immunobiologik preparatlarni O'z Res.SSVning 11 aprel 2006 yil 148-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Barcha bo'g'inlarda, saqlanadigan vaksinalarni effektivligini boshqarish bo'yicha Standart Ishchi Muolajalar»i uslubiy qo'llanmani hisobga olgan xolda saqlanishi lozim.

Emlash xonalarida vaksinalarni saqlaydigan sovutgich jihozlari me'yorda ishlaganda va elektr ta'minoti uzluksiz bo'lganda saqlanish muddati 1 oy. Shu belgilangan muddatni e'tiborga olgan holda DPMLlarda avvaldan 1 oyda sarflanadigan vaksinalarning hisobi qilinib, vaksina olinishi lozim.

Sovutgich jihozlari nosoz bo'lganda elektr ta'minotida uzilishlar ko'p bo'lganda vaksinani 1 kunda, ya'ni emlash o'tkazadigan kunga berish masalasi hal etilishi kerak.

Vaksinalarni saqlash tartiblari:

Vaksinalar erituvchilarini muzlatish mumkin emas, ularni +2 °S dan +8 °S gradus gacha bo'lgan haroratda saqlash lozim. Erituvchilarini xona haroratida yoki sovutgichda bo'sh joy bo'lsa, uning ichida saqlash mumkin. Emlash kunida erituvchilar sovutgichda +2 °S gradusdan +8 °S gradusgacha bo'lgan haroratda saqlanishi lozim.

VG V, AKDS, ADS, ADS-M, AD-M va rotovirusga qarshi vaksinalarni muzlatish qat'iyan man etiladi, ularni sovutgichni o'rtasidagi polkada saqlash kerak. Sholga qarshi vaksinani muzlagan holda saqlanishiga faqat DSENMLlarda ruxsat etiladi.

Foydalanishga yaroqsiz vaksinalar:

fizikaviy xususiyatlarga mos kelmasa;

ampula butunligi buzilgan bo'lsa;

flakon yoki ampuladagi yozuv belgilari yo'q bo'lsa yoki noaniq bo'lsa;

yaroqlilik muddati o'tgan bo'lsa;

sovuqlik tizimiga rioya etilmasdan saqlangan yoki tashilgan bo'lsa, ayniqsa, muzlagan bo'lsa (intikator ko'rsatgichlari bo'lsa)

+8 °S va yuqori harorat ta'sirida bo'lgan, flakondagi indikator rangi (III-IV darajada) o'zgargan bo'lsa barcha vaksinalar yo'qotiladi.

Foydalanishga yaroqsiz xolga kelib qolgan vaksinalarni yo'q qilish uchun uch kishi (UASh, bosh hamshira, o'rta tibbiyot xodimi)dan iborat komissiya tuzilib, dalolatnoma yoziladi. Dalolatnomada preparatni foydalanishdan chiqarib tashlash sabablari ko'rsatiladi.

Muassasa bosh vrachi buyrug'i bilan emlashda foydalanilgan shprislarni, ignalarni va boshqa in'eksiya materiallari yig'ilgan maxsus karobkalarni yo'q qilish uchun maxsus o'qitilgan, sertifikatli bo'lgan o'rta tibbiy xodim yoki kichik tibbiy xodim tayinlanadi.

Boshqariladigan yuqumli kasalliklarni epidemiologik nazorati

Respublika sanitariya — epidemiologiya xizmati ta'minlashi lozim:

kasallanish va tashuvchanlik darajasi bo'yicha epidemiologik kuzatuv o'rnatish;

kasallanish xavfi yuqori bo'lgan hudud (bo'g'ma, ko'kyo'tal, qizamiq, shol, koksholga 2 yoshgacha bolalarni emlashga to'liq qamrab olinmagan, oxirgi 5 yilda kasallanish ko'rsatkichi yuqori bo'lgan)lar birinchi navbatda profilaktik va epidemiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirish uchun aniqlab olish;

immunitet tarangligi nazoratini tashkil etish;

boshqariladigan yuqumli kasalliklarni qo'zg'atuvchilarini odamlar o'rtasida va tashqi muhitdagi sirkulyatsiyasini kuzatish.

Bo'g'ma kasalligini epidemiologik nazorati

bo'g'ma kasalligiga gumon qilingan shaxslar (rinit, laringotroxeit, laringit, nafas bo'g'ilishi) barcha turdagi angina bilan bemorlarni laboratoriya tekshiruvidan o'tkazish;

aholi qatlamlarini bo'g'maga qarshi immunitetini nazorat qilish;

kasallik o'choqlarida muloqotdagilarini, kasallanish avj olganda esa xavfli guruhdagi shaxslarni ham tekshirish;

profilaktik maqsadda-bolalar uylariga, maktab internatlariga, sil bilan kasallanganlar sanatoriyalariga, bolalar va katta yoshdagilar psixonevrologik muassasalariga yangi ishga qabul qilinganlar tekshiriladi;

O'tkir bo'shashgan shol (o'bsh) epidemiologik nazorati va shol kasalligini chetdan kirib kelishini yo'l qo'ymaslik

shol kasalligiga gumon qilingan shaxslar shuningdek o'tkir bo'shashgan shol belgilari mavjud bo'lgan, noma'lum sababga ko'ra falajlik kuzatilgan bolalarni virusologik va serologik tekshiruvlardan o'tkazish;

shol kasalligi bilan kasallangan va kasallikka gumon qilingan bolalar bilan muloqotda bo'lganlarni, O'BSH infeksiyasi o'chog'ida bo'lgan bolalarni va tashqi muhitni laboratoriya usuli bilan tekshirish;

bolalarni sholga qarshi immunitet tarangligini o'rganish;

epidemik o'choqda bemor bilan muloqotda bo'lgan shaxslarni emlash;

oqova suvlarni, tuproqni, ochiq suv havzalarini laboratoriya usuli bilan nazorat qilib borish (hamma virusologik va serologik tekshiruvlarni 50 % ni tashkil etishi lozim)

O'BSH ustidan faol epid nazorat o'tkazish;

shol bilan kasallanish holati chetdan kirib kelganligini aniqlanganda «Milliy chora-tadbirlar rejasi»ga muvofiq barcha chora-tadbirlar o'tkaziladi.

Qizamiq qizilcha va tug'ma qizilcha sindromi epidemiologik nazorati

(O'z.Res.SSVning 24 aprel 2003 yil kunidagi 192-sonli buyrug'i va SSVning 11 mart 2013 yil kunidagi 202-sonli farmoyishi)

Maqsad — 2013 yildan boshlab qizamiq va qizilchani batamom tugallashga erishish jarayonlari tizimini tatbiq etib, 2018 — 2020 yillarda qizamiq va qizilchani Respublikada batamom tugatish buning uchun epid nazorat bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish lozim.

qizilcha va qizamiqqa gumon qilingan shaxslarni virusologik va serologik tekshiruvlardan o'tkazish;

qizamiq va qizilcha kasalligi bilan kasallangan bemor yoki gumon qilingan shaxslar bilan kasallik o'chog'ida muloqotda bo'lgan shaxslarni serologik laboratoriya usuli bilan tekshirish;

bolalarni qizamiq va qizilchaga immunitet tarangligini o'rganish maqsadida tekshiruvlar o'tkazish;

epidemiologik o'choqda bemor bilan muloqotda bo'lgan 6 oylikdan 30 yoshgacha bo'lgan shaxslarni qizamiq va qizilchaga qarshi emlash;

qizamiq, qizilcha va TQS bo'yicha faol epid nazorat o'tkazish.

Emlashdan so'ngi reaksiyalar va asoratlarni epidemiologik nazorati

(O'zbekiston Respublikasi SSVning 27 yanvar 2015 yildagi 36-sonli buyrug'i.)
emlashdan so'ngi reaksiyalarni (ESR) va emlashdan so'ngi asoratlarni (ESA) ni aniqlash va ro'yxatga olish bo'yicha tekshiruv o'tkazish hamda kelib chiqish sabablarini aniqlash;

ESR va ESAlarni xususiyatlarini va sonini har bir preparat uchun alohida o'rganib, aniqlash;

olingan ma'lumotlarni tahlil qilish;

ESR va ESAlarni keltirib chiqaruvchi xavf — omillarini aniqlash.

Epidemiologik ko'rsatma bo'yicha profilaktik emlash kalendari

Emlanishi lozim bo'lgan kontingentlar	Emlash turlari	Vaksinatsiya muddatlari	Revaksinatsiya muddatlari
Kuydirgi kasalligi bo'yicha enzootik hududlarda quyidagi ishlarni bajaruvchi shaxslar: qishloq xo'jaligi, gidromeliorativ, tuproqni qazish, tashish bilan shug'ullanadiganlar, mahsulotlarni tayyorlovi bilan shug'ullanadiganlar, geologik — qidiruv ekspeditsiya xodimlari; qishloq xo'jaligi hayvonlari xom ashyolari va mahsulotlarini tayyorlash, saqlash, xom ashyolarni qayta ishlash va o'lgan hayvonlarni ko'mish bilan shug'ullanadiganlar; kuydirgi kasalligini qo'zg'atuvchisi tirik kulturalari bilan ishlaydigan shaxslar.	Kuydirgiga qarshi	14 yoshdan boshlab	1 yildan so'ng
Qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish va saqlash bilan shug'ullanadigan shaxslar; veterinarlar, ovchilar, o'rmonchilar, qushxona va zoopark xodimlari; qutirish virusi bilan ishlovchi xodimlar.	Qutirishga qarshi	16 yoshdan	Birinchisi bir yildan so'ng, keyinchalik har uch yilda
ichterlama kasalligi bo'yicha kasallanish darajasi yuqori bo'lgan va ichterlama bo'yicha epidemiologik noxush mikrouchastkada yashaydiganlar; kanalizatsiya qurilmalari, jihozlari va tarmoqlariga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan shaxslar; ichterlama kasalligi bo'yicha giperendemik mamlakatlariga va joylarga boradigan shaxslar;	Ichterlamaga qarshi	3 yoshdan 15 yoshgacha vaksina turiga qarab	1 va 3 yildan keyin vaksina turiga qarab

kasallik o'chog'ida muloqotda bo'lgan shaxslar epidemiologik ko'rsatmaga muvofiq; ichterlama qo'zg'atuvchisi tirik kulturalari bilan ishlaydiganlar.			
sariq istima bo'yicha epidemiologik noxush bo'lgan chet mamlakatlar (Janubiy Afrika mamlakatlari) ga borayotgan shaxslar.	Sariq isitmaga qarshi	9 yillikdan boshlab	10 yilda bir marta
bo'g'ma kasalligi o'chog'ida muloqotda bo'lganlar, avvalda emlanmagan va bo'g'ma bilan kasallanmagan bo'lsa.	Bo'g'maga qarshi	2 oylikdan boshlab	Emlash kalendariga muvofiq
qizamiq va qizilcha o'chog'ida muloqotda bo'lganlar, avvalda emlanmagan va qizamiq va qizilcha bilan kasallanmagan bo'lsa.	Qizamiq va qizilchaga qarshi	6 oylikdan boshlab	Emlash kalendariga muvofiq
epid. parotit o'chog'ida muloqotda bo'lganlar, avvalda emlanmagan va epid.parotit bilan kasallanmagan bo'lsa.	Epid.parotitga qarshi	1 yoshda	Emlash kalendariga muvofiq
yoshi 60 dan yuqorilar, surunkali somatik kasalliklar bilan kasallanadiganlar, o'tkir resperator kasalliklari bilan tez-tez kasallanadiganlar, maktab yoshigacha bo'lgan bolalar va aholiga xizmat ko'rsatuvchi aholi guruhi.	Grippga qarshi	6 oylikdan boshlab	Har yili
«A» yoki «S» sero guruhidagi meningokokklar keltirib chiqaradigan meningokokk infeksiyasi o'chog'ida bo'lgan bolalar, o'smirlar va katta yoshdagilar; Kasallanish ko'rsatkichi o'tgan yilga nisbatan 2 marta ortganda, kasallanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar (MTM ga qatnaydigan bolalar, maktabning 1-2 sinf o'quvchilari);	Meningokokk infeksiyasiga qarshi	1 yoshdan boshlab vaksina turiga qarab	3 yildan keyin

Uyushgan jamoa yotoqxonalarida yashaydigan o'smirlar, sanitariya epidemiologik noxush sharoitdagi oilaviy yotoqxonalarda yashaydigan bolalar.			
oilasida NV ₅ Ag tashuvchilari yoki surunkali virusli gepatit «V» kasalligi bilan kasallangan bemorlar bo'lsa, bolalar va katta yoshdagilar; bolalar uylarida va internatlarida tarbiyalanadigan bolalar; muntazam ravishda qon va uning pereparatlarini oladiganlar hamda gemodializda bo'ladiganlar va onkogemotoloik bemorlar; virusli gepatit «V» virusi bilan infeksiyalangan biomaterialar bilan muloqotda bo'lgan shaxslar va VG «V» bilan kasallangan bemor qoni bilan muloqotda bo'ladigan tibbiy xodimlar; donorlik yoki plasentar qondan immunobiologik preparatlar tayyorlaydigan korxonalarda ishlaydigan shaxslar; tibbiyot oliy o'quv yurtlari va kolleji talabalari (birinchi navbatda bitiruvchilar); parenteral (in'eksiya yo'li bilan) narkotik moddalar qabul qiluvchilar.	VG «V» qarshi	Barcha yoshdagilar, 0-2-4 oylik sxema bo'yicha	
virusli gepatit «A» kasalligi bo'yicha epidemiologik noxush kasallik o'choqlarida bo'lgan shaxslar.	VG «A» ga qarshi	2 yoshdan boshlab	Birinchi dozasidan keyin bir yil ichida
Shol kasalligi bilan kasallangan bemorlar bilan muloqotda bo'lgan shaxslar.	Sholga qarshi	5 yoshgacha 2 marta	Emlash kalendariga muvofiq

Aholi bilan muloqotga kirishuvchi barcha turdagi xizmat ko'rsatish ob'ektlari (Davlat xizmatlari markazlari, O'zbekiston pochta bo'linmalari, banklar, lizing tashkilotlari, notariuslar, sug'urta kompaniyalari, turistik agentliklar, go'zallik salonlari, avtotransport vositalarini ta'mirlash va moy almashtirish, yuvish shaxobchalari, sataroshxonalar, internet zallari, to'lovlarni qabul qilish punktlari, rieltorlik xizmatlari, reklama xizmatlari va boshqalar) xodimlari; barcha turdagi savdo (oziq-ovqat, xo'jalik mollari, kiyim-kechak do'konlari, dorixonalar va boshqalar) ob'ektlari xodimlari; sport maktablari hamda sport inshootlari xodimlari; madaniy hamda ko'ngilochar ob'ektlar va dam olish maskanlari xodimlari; mehmonxonalar, mehmon uylari, xostellar, otellar, yotoqxonalar va kempinglar ishchi-xodimlari; yo'lovchi tashish bilan shug'ullanuvchi davlat va nodavlat tashkilotlar xodimlari; davlat va nodavlat ta'lim muassasalari xodimlari; harbiy xizmatchilar; umumiy ovqatlanish joylari, jumladan jamoat joylarida joylashgan tezkor ovqatlanish nuqtalari, choyxona, to'yxona, kafe va restoranlarning xodimlari, shuningdek, mahsulotlarni yetkazib berish bilan shug'ullanuvchilar;	Koronavirus infeksiyaga qarshi	18 yoshdan yuqori	Vaksinani qo'llashga doir yo'riqnoma asosida
--	---------------------------------------	--------------------------	---

barcha turdagi davlat va nodavlat tibbiyot va tibbiy-ijtimoiy ob'ektlar xodimlari; kommunal xizmat sohasi xodimlari; aloqa va telekommunikatsiya ob'ektlari xodimlari; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari xodimlari; huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari.			
--	--	--	--

Eslatma:

profilaktik emlash kalendari doirasida epidemiologik ko'rsatmaga asosan emlash ishlari mamlakatimizda va chet mamlakatlarda ishlab chiqarilgan, dori vositalari va tibbiy texnikalar sifatini nazorat qilish Bosh Boshqarmasi tomonidan ro'yxatga olingan, sertifikatlashtirilgan hamda O'zbekiston Respublikasida foydalanishga ruxsat etilgan, joriy etilgan tartibga muvofiq foydalanish yo'riqnomalari bo'lgan vaksinalar bilan o'tkaziladi.

profilaktik emlash doirasida epidemiologik ko'rsatmaga muvofiq qo'llaniladigan inaktivatsiyalangan vaksinalar (antirabik vaksinasidan tashqari) va boshqa ushbu SanQvaM bo'yicha milliy emlash kalendarida keltirilgan inaktivatsiyalashgan vaksinalar bir vaqtning o'zida alohida shprislar bilan tananing turli joylariga yuborish mumkin.